



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 454 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
Shermatova Yakut Sabirovna	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
Turdiyeva Zilola Jalilovna	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
Xalikova Umida Mirovna	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
Kushakova Gulnora Egamkulovna	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
Normurodova Gulnora Ikromovna	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
Jurakulova Dildora Ziyadullayevna	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
Kazakova Saxiba Abdurayimovna	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
Ziyayev Adxamjon	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
Jo'rayeva Nozima Nozim qizi	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
Teshaboyeva Feruza Raximovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
Ashirova Sojida Baxromovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna	

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	
Mentorlik faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	229
Zikriyayev Zokir Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish.....	232
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Sunnatullayeva Amina	
Professional kompetentlik va uning shaxs psixologik xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi	235
Artikova Nodira Shavkat qizi	
Talaba qizlarni jismoniy faolligini rivojlantirish tasnifi va ularni orgatish metodikasi.....	240
Otasheva Oysanamxon Hamidulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik	245
Bekchanova Kuvanch Roximovna	
Voleybolchilarni tayyorlashda differensial vositalaridan foydalanishning zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	249
Kambarov Kozimjon Ibragimovich	
2-toifa diabet bilan bog'liq stressga qarshi kurashish strategiyalari va psixologik holatlar	254
Sadikova Umida Botirovna	
Boshlang'ich ta'limda vizual va multimediyaviy texnologiyalarning pedagogik-psixologik ahamiyati	258
Raximova Faridabonu Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida VARK modeli asosida multimodal o'qitishni tashkil etish (OAK talablariga mos maqola).....	261
Raximova Mushtariy Alisher qizi	
Raqamli ta'lim muhitida veb-texnologiyalar asosidagi platformalarning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va optimallashtirish	264
Zoxidov Jahongir Botirxonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini umumta'lim jarayonida ona tili darslarida rivojlantirish metodikasi.....	272
Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari	276
Teshabayeva Oyguil Fazliddinovna	
Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga o'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlashning ta'siri	280
M. R. Sultonova	
Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda bemor o'quvchilar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglarga qo'yiladigan talablar	284
Umarova Saboxon Minavvarovna, Abdusattorova Gulxumor	



Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish masalalariga doir	287
Erkayev Elmirza Temirovich	
10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish metodikasi.....	294
Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich	
Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining samaradorligini oshirish usullari	298
Yaqubov Arslon Maxmudovich	
Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishi	301
Dinora Eshboyeva Alisher qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish. Axloqning kelib chiqishi va asoslanish masalasini nazariy tahlil qilish	306
Shaxayev Bauirjan Seytgalievich	
Maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llashda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	310
Ahmedova Zuhraxon Mamurovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyati	314
Mirzabayeve Zebo Umarovna	
Elektrolitlarda elektr toki mavzusini o'qitishda noto'g'ri tasavvurlar va ularni bartaraf etish metodikasi	317
Xoliqov Qurbonboy To'ychiyevich	
Mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya faoliyatini takomillashtirish ..	323
Ibodullaeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda montessori metodikasining uyg'unligi	327
Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi, Xaydarova Shaxlo Narzullayevna	
XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy tillar taraqqiyotini o'rganishda "Kitob ul-Bulg'at" asarining lingvistik tadqiqi	332
Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi	
Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish.....	336
Nabiyev Feruz Abdumannonovich	
STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.....	341
Choriyor Maxmatraimov Eshmatovich	
Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish	345
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna	
Raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish (texnologiya fanini o'qitish misolida).....	348
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna	
O'zbek tili – faxrim, g'ururim	351
H. Shukurova, M.Jumanazarova	
Zamonaviy dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni.....	355
M. Kuzibayeve	
Talabalarni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	358
Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li	
Raqamli maktabda yashil o'quv dasturi: kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyaning pedagogik modeli.....	362
Maxmudov Abdiqodir Yusupovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik empatiyani shakllantirish pedagogik muammo sifatida	367
Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	371
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari	377
Sh. A. Xujakulov, T. B. Kadirov	
Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanishning roli.....	383
Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li	
Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida bilish etikasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya	387
Tursunova Nilufar Samiyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	393
Tursunova Saidra Isakovna	
Yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlik tarbiya texnologiyasining o'rni	396
Pirlijeva Gulmira Botir qizi	
Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmuallardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollari.....	400
Nabiyev Feruz Abdumannonovich, Mamanazarov Baxrom Jumonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatda bilish jarayonlarini rivojlantirish	405
Sadirova Kamola Giyozovna	
Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati.....	409
O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlari.	413
Xalmuxamedov Bobir Taxirovich	
О развитии учебно-познавательной деятельности студентов	418
М. Халикова	
Психологические механизмы искажения истины в процессе социализации: нормативно-когнитивная модель и смешанное эмпирическое исследование	421
С. Ю. Нишанов	
Методы повышения речевой активности студентов в процессе обучения иностранному языку.....	425
Утешова Зернегул Хурметуллаевна	
Prenatal va erta chaqaloqlik rivojlanishi va rivojlanishning biologik asoslari	429
N. Mirbabayeva	
O'smir shaxsining rivojlanishi	433
Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayotida jadidlarning tutgan o'rni	435
N. M. Qodirova	
Development of Physical Qualities Through the Use of Special Physical Exercises With Student Participation.....	439
Rikhsiev Dilshod Shavkatovich	
Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati	442
Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi	
Special Physical Exercises in Coxarthrosis During the Preoperative and Postoperative Periods of Rehabilitation.....	446
Valiev Farrukh Nigmatjonovich	
Роль цифровых технологий и дидактических принципов в учебных практик.....	449
Байметов М. М.	



PROFESSIONAL KOMPETENTLILIK VA UNING SHAXS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

Artikova Nodira Shavkat qizi

Kimyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Kompetensiyalarni shakllantirish professional mutaxassis tayyorlash jarayonidagi eng murakkab va ko'p qirrali vazifalardan biridir. Mazkur jarayonni faqat universitet ta'limi doirasida to'liq amalga oshirish deyarli imkonsiz bo'lib, u nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda amaliy faoliyat, ijtimoiy tajriba va kasbiy muhit bilan uzviy integratsiyani talab etadi. Ushbu maqolada ijtimoiy-professional kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi hamda ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ochib beriladi. Tadqiqot doirasida mavzuga oid nazariy yondashuvlar umumlashtirilgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: professional kompetentlik, kommunikativlik, tajriba, qobiliyat, ijtimoiy onglik, fundamentallik, integratsiyalashuv, kasbiy faollik.

Abstract: The development of competencies is one of the most complex and multidimensional tasks in specialist training. More precisely, it cannot be fully achieved solely within the framework of university-based professional education, as it requires not only theoretical preparation but also practical experience, social interaction, and integration into a professional environment. This article examines the development of social and professional competencies and identifies the factors influencing their formation. The study summarizes relevant theoretical approaches and provides practical recommendations.

Key words: professional competence, communication skills, experience, ability, social awareness, fundamental principles, integration, professional activity.

Аннотация: Формирование компетенций является одной из наиболее сложных и многогранных задач в подготовке специалиста. Данный процесс практически невозможно полностью реализовать исключительно в условиях университетского профессионального обучения, поскольку он требует не только теоретической подготовки, но и практического опыта, социальной активности и интеграции в профессиональную среду. В статье анализируются вопросы развития социально-профессиональных компетенций и раскрываются факторы, влияющие на их формирование. В рамках исследования обобщены теоретические подходы и представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, коммуникативность, опыт, способности, социальная осведомлённость, фундаментальность, интеграция, профессиональная активность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasini isloh qilish, xalqaro talablar asosida o'quv jarayonini tashkil etish, yuqori kompetensiyalarga asoslangan yondashuvlar asosida ta'lim maqsadlarini aniqlash kabi ishlar yurtimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor maqsadlaridan biridir. Psixologik mazmunga ko'ra, insonning biror sohaga nazariy va amaliy tayyorgarligi kompetentlik sanalib, u professional kompetentlik bilan kengroq tushuntiriladi. E.M. Pamoxvaning fikricha, "professional kompetentlik" keng qamrovli psixologik tushuncha sanalib, unda shaxsga xos refleksiv, prognostik, analitik, tashkiliy, kommunikativ, proeksion hamda konstruktiv jihatlar mujassamdir. Demak, professional kompetensiya – insonning qadriyatlar olamiga kirishi hisoblanib, aynan unda inson mutaxassis sifatida o'zini anglaydi va yangilik yaratadi. Shuningdek, professional kompetensiya insondagi sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, qobiliyat, iste'dod, professional fazilatlar, motivatsiya hamda qator xarakterologik sifatlar mazmuniga ham javob beruvchi fenomen hisoblanadi. Uni tadqiq etish kasb va shaxs haqida o'ta ahamiyatli, qiziqarli ma'lumotlarni aniqlashga imkon berishi ehtimoldan xoli emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, professionallik xususiyati talabalarda kasbiy faoliyatni rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi psixologik omillardan biri sanalib, unda talaba shaxsiga xos xarakterologik xususiyatlar, ya'ni ma'naviy-axloqiy barkamollik, fidoiylilik, hayotiy qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy ongillik, o'z-o'zini nazorat qilish, burch va majburiyatlarini oqilona anglash kabi psixologik sifatlar mujassamdir. Qoidaga ko'ra, mazkur sifatlarni shakllantirish talabaning o'z sohasiga bo'lgan motivatsion munosabatlarini rivojlantirish bilan ham xarakterlanadi. Bizningcha, talabalar shaxsida o'quv faoliyatiga nisbatan mas'uliyatlilikni ro'yobga chiqarish imkoniyatlari, avvalo, ta'lim muhitida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishdan boshlanadi. Mashg'ulotlarning murakkablik xarakteri talabalarning aqliy, hissiy-irodaviy, kommunikativ sohalarining rivojiga ham keng ta'sir etadi.

L.I. Dementiyning so'zlariga ko'ra, talabalarda professional kompetentlikni ro'yobga chiqarish ishlari ularda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi:

- atrofdagilar bilan erkin muloqot qila olish ko'nikmalari;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish malakalari;
- sohaga oid ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish;
- iqtisodiy va sohadagi yangiliklardan xabardorlik;
- ta'lim to'g'risidagi qonunlar, farmonlar hamda tegishli vazirliklarning buyruq va hujjatlari mazmunidan xabardorlik;
- xorij tillaridan birini mukammal bilish;
- boshqalarni o'zgartirishga nisbatan psixologik tayyorgarlik va hokazo.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatdagi professionallik mezonlari ixtiyoriy faoliyatning ikki jihatini qamrab olishi ta'kidlangan.

V.M. Borsova o'z tadqiqotlarida o'quv faoliyatida talabalarda professionallikni ro'yobga chiqaruvchi psixologik shart-sharoitlarning uch muhim jihatini ajratadi. V.A. Adolfining aytishicha, bo'lajak mutaxassis talabalarning malakasini oshirishga ixtisoslashgan dasturlar ikki muhim tamoyil asosida ish yuritishi lozim hisoblanadi. Ya'ni mazkur tamoyillar umumiy va maxsus turga ajratilib, u o'z mazmunida quyidagilarni maqsad qiladi:

TADQIQOT METODOLOGIYASI

1. **Dinamizm tamoyili** – bu ta'lim dasturlarini doimiy o'zgartirib borish va yangilab turishni nazarda tutadi;
2. **Istiqbollik tamoyili** – bu bo'lajak mutaxassis psixolog talabalar tomonidan turli xil ta'lim imkoniyatlari tizimini chuqur tushunishlarini xarakterlaydi;
3. **Ko'p qirralik tamoyili** – bu bo'lajak mutaxassis psixolog talabalarning yuqori qiziqishlar ko'lamini va talabalarning malakasi kabilarni o'z ichiga oladi;
4. **O'zaro ta'sirlashish tamoyili** – bu talabalar va talabalarning o'zaro munosabatlari hamda o'quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi muloqot jarayoni kabilar bilan tavsiflanadi.

V.A. Isayevning mulohazasiga ko'ra, kasbiy kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning mazmuniga ko'ra, bo'lajak mutaxassis talabalarda kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirish faqat o'qitish orqali emas, balki uslubiy va yangi pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun, avvalo, o'qitish muhitida psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhimdir. Mazkur shartlarga quyidagilar kiradi:

1. Mashg'ulotlarda o'qituvchining rolini o'zgartirish – bunda dastlab o'qituvchi bilimlarini yetkazish vazifasini bajaradi, o'quvchilarga nazariy ma'lumotlarni tushuntiradi yoki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan aktyor rolini bajaradi;
2. Talabalarning kasbiy faoliyatini rag'batlantiradigan innovatsion usullarni joriy etish. Bu o'qituvchining tajriba to'plashi va almashishi, ishdagi qiyinchiliklarni yengish va ijodiy loyihalash kabi qobiliyatlar orqali tushuntiriladi;
3. Talabalar kasbiy kompetensiyalarining ko'plab elementlariga va ularning individual xususiyatlarini takomillashtiradigan o'qitish usullaridan foydalanish. Bunday usullarga quyidagilar kiradi: ijobiy xatolar usuli, ijodiy-muammoli, o'yin shaklidagi usullar, rolli moslashuvlarni o'rganish texnikasi, g'oyalarni namoyish qilish va loyihalar metodlari va hokazo;



4. Talabalarining turli xil kasbiy va hayotiy shart-sharoitlariga e'tibor berish, ta'lim maqsadlari va mehnat bozorida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vaziyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshirish;
5. O'quv jarayonida olingan tajribalarni o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan va ma'lum bir kishiga xos bo'lgan individual rivojlanish xususiyatlarini ta'minlaydigan hamda tezkor baholash operatsiyalaridan foydalana olish va hokazo.

Shunday qilib, biz kasbiy vakolatlarni rivojlantirish maqsadni belgilovchi tarkibiy qism sifatida harakat qilishini va o'ziga xos psixologik-pedagogik holatlarni shakllantirishda amalga oshirilishini kuzatishimiz mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'kidlash joizki, bo'lajak mutaxassis talabalar shaxsiga xos kasbiy yaroqlilik ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan va uni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin. V.A. Tolechekning fikricha, professional kompetentlikning ichki jihatlarini qadriyatli, texnologik va shaxsiy-ijodiy ko'rinishda tahlil etish ham mumkin. Talabani qadriyatli tizimi, avvalo, falsafa fanining o'rganish masalalaridan biri sanaladi. Unda qadriyatlar tushunchasi mazmuniga oid barcha turdagi savollar ko'rib chiqiladi.

Professional kompetensiya mutaxassislarning professional tayyorgarlik holati bilan uzviy bog'liq sanalib, unda malaka, ishlash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, professional kamolotga erishish kabi jihatlar ajratiladi. Ya'ni malaka, mahorat, professional tajriba, professional bilim va ko'nikmalar professional kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

J. Nyuten "professional kompetentlik" tushunchasini tahlil etar ekan, uning fikricha, ushbu tushuncha mazmunida kasbga munosabat, muvaffaqiyatga intilish, professional motivatsiya hamda insonning sohaga bo'lgan qiziqishlari ham mujassamdir. Boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, V.A. Bodrovga ko'ra, professional kompetensiyaning shakllanganlik darajasi bo'lajak mutaxassislarning professional tayyorgarlik holati bilan uzviy bog'liq sanalib, unda malaka, ishlash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, professional kamolotga erishish kabi jihatlar ajratiladi. Ya'ni malaka, mahorat, professional tajriba, professional bilim va ko'nikmalar professional kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Professional kompetentlikning rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida ekspert baholashdan foydalandik. Bunda rus psixologi T.S. Timofeevaning so'rovnomasidan foydalandik. 1-jadvalda sifatlar va kompetensiyalar keltirilgan. 2-jadvalda esa talabalar tomonidan shu sifat va kompetensiyalarga berilgan o'rinlar aks etgan. Aytish lozimki, eksperiment jarayonida Toshkent amaliy fanlar universiteti hamda Kimyo xalqaro universiteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari respondent sifatida tanlab olindi.

1-jadval

No	Kasbiy sifatlar	Kasbiy kompetensiyalar
1	Diqqat-etiborlilik	Tadqiqotchilik, analitik qobiliyalar
2	Kasbni qadriyat deb bilish va unga tegishlilikni ifodalash	Metod va metodologiyani tanlay olish. Real vaziyatga mos metodikalarni qo'llash qobiliyati
3	Kreativlik	Individga psixologik yordam ko'rsatish qobiliyati
4	Intuitsiya	Psixodiagnostik jarayonni tashkil etish va tahlilni amalga oshirish ko'nikmasi
5	O'z- o'zini anglash va o'z- o'zini tushunish	Profilaktik va korreksion dasturlarni yarata olish qobiliyati
6	O'z- o'ziga ishonch	Axborot texnologiyalaridan foydalana olish
7	gumanizm	Shaxslararo munosabatlarni o'rnatish
8	Tolerantlik	Insonlarni qanday bo'lsa shunday qabul qilish
9	Emotsional barqarorlik	Psixika va faoliyatning rivojlanishini tadqiq eta olish
10	Yuqori intellectual rivojlanish	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish
11	Baholamaslik	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish
12	Empatiya	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish
13	Aytentiklik	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish

Yuqoridagi jadvaldagi sifat va kompetensiyalar ishlab chiqarish amaliyotida qaytgan talabalarga ahamiyatlilik darajasidan kelib chiqqan holda o'rinni belgilash vazifasi berildi. 2-jadvalda kompetensiyalarga berilgan o'rinlarni ko'rish mumkin. Talabalarga kasbiy faoliyatdagi muhim kompetensiyalarga tegishli o'rinni berish orqali o'zlarini shu kompetensiyalarga o'z munosabatlarini aks ettirishlari so'ralgan.



2-jadval

No	Kasbiy kompetensiyalar	O'rinlar
1	Tadqiqotchilik, analitik qobiliyalar	8
2	Metod va metodologiyani tanlay olish. Real vaziyatga mos metodikalarni qo'llash qobiliyati	7
3	Individga psixologik yordam ko'rsatish qobiliyati	1
4	Psixodiagnostik jarayonni tashkil etish va taxliini amalga oshirish ko'nikmasi	2
5	Profilaktik va korreksion dasturlarni yarata olish qobiliyati	3
6	Axborot texnologiyalaridan foydalana olish	10
7	Shaxslararo munosabatlarni o'rnatish	4
8	Insonlarni qanday bo'lsa shunday qabul qilish	5
9	Psixika va faoliyatning rivojlanishini tadqiq eta olish	9
10	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish	6

Olingan natijalar bo'lajak mutaxassislarning kasbiy rivojlanganlik va amaliy ko'nikmalarining shakllanganlik darajasida mijoz bilan ishlashga moyillik yuqori o'rinlar bilan belgilanganligini, axborot texnologiyalarini egallash, tadqiqot ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq kompetensiyalar yetarli shakllanmaganligidan dalolat berdi. O'tkazilgan tadqiqot kasbiy shakllanish jarayoni murakkab jarayon ekanligini va bunda keltirilgan barcha psixologik sifatlar bo'lajak mutaxassislar uchun kelgusi faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi psixologik omillar muvaffaqiyatlarini to'liq ta'minlamasligini ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, kasbiy kompetensiyalarga ta'lim jarayonining o'zida to'liq erishib bo'lmaydi. Zero, kasbiy kompetensiyalarni to'liq egallash yillar davomida, amaliyotda tarkib topadi. Demak, barcha darajalardan o'tgan va o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil eta olgan faol talabani o'z sohasining mutaxassisi deb hisoblashimiz mumkin emas. Hamkasblari uchun namunali mutaxassis maqomida bo'lish uchun yillar davomida faoliyat qilish, kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash kerakligini talabaning o'zi ham anglash zarur. Yuqori muvaffaqiyatlarga erishish uchun talabalar o'z kasbiy faoliyatida o'zini ko'ra olishi hamda shu soha uchun lozim bo'lgan bilimlarni puxta egallashga harakat qilishi, ayniqsa, o'z amaliy va nazariy kompetensiyalarini takomillashtirib borishlari maqsadga muvofiq sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbiy ko'nikma va malakalar ta'lim muhiti shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liq sanalib, keyinchalik ular kasbiy kompetentlik xususiyati bilan to'ldiriladi. Tahlil etilgan nazariy qarashlar va yondashuvlarning mazmuniga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak kadrlarni professional tarzda shakllantirish lozim. Bu esa o'z o'rnida ta'lim sifati, baholash tizimi va oliy ta'lim muassasasidagi professor-o'qituvchilar bilimi, salohiyati va tajribasiga ham bevosita bog'liq ^[6].

Demak, oliy o'quv yurti muassasalarida professional kadrlarni tayyorlash ishlarida yuqorida keltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish tamoyillariga amal qilinishi o'ta muhim sanaladi. Bo'lajak mutaxassis faoliyatiga xos bo'lgan kasbiy rivojlanish omili kasb haqidagi bilimlarning ongda integratsiyalashuvi bo'lib, u shaxsning dunyo va o'zi haqidagi bilimlari bilan tushuntiriladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kasbiy rivojlanish murakkab dinamik jarayondir. Unda nafaqat ta'lim muassasasi, balki ta'lim oluvchining ham yuqori maqsadlar sari intilishi talab etiladi.

Foydalanilgan dabiyyotlar ro'yxati:

1. Каюмова Н. М. Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организации // The Time of Scientific Progress : материал международной научно-практической конференции. – 2022. – Т. 1, № 3. – С. 102–107.
2. Каюмова Н. М., Якубова З. З. Дошкольное образование как способ формирования образованной и воспитанной личности // Современная наука XXI век: научный, культурный, IT-контекст. – 2021. – С. 92–95.
3. Qodirova F. R., Toshpo'latova S. Q., Kayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika : darslik. – Toshkent, 2019. – ___ b.
4. Kayumova N. M. Maktabgacha pedagogika : o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – ___ b.



5. Qodirova F. R., Toshpulatova S. Q., Kayumova N. M., A'zamova M. N. Preschool pedagogy : textbook. – Tashkent, 2018. – ____ p.
6. Kayumova N. M., Ro'ziyeva M. M. Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o'rni // "Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning roli" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022. – S. 102–104.
7. Kayumova N. M., Bazarbaeva Z. O. Речь детей как психолого-педагогическая проблема // Innovative Trends in Science, Practice and Education : материал международной научно конференции. – 2023. – Т. 2, № 8. – S. 68–73.
8. Kayumova N. M. Educating children in the spirit of national values in preschool educational organizations and in the family // Modern Scientific Research : International Scientific Journal. – 2023. – Т. 1, № 6. – P. 33–38.
9. Kayumova N. M., Turg'unova M. R. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish // International Conferences. – 2023. – Т. 1, № 2. – S. 609–612.
10. Kayumova N. M., Turg'unova M. R. Maktabgacha ta'limni sifat jihatdan takomillashtirishda tarbiyachining pedagogik mahorati // International Conferences. – 2023. – Т. 1, № 2. – S. 605–608.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.